

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

GEOLOGIYA VA KONCHILIK ISHI FAKULTETI
EKOLOGIYA VA MEHNAT MUHOFAZASI KAFEDRASI

Ro'yxatga olindi:

№ 214

2022 yil "28" 08



"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
O.N. Bazorov

28.08.2022 yil

"HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI" fanining
ISHCHI O'QUV DASTURI

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani bo'yicha "5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifat menejmenti" ta'lim yo'nalishi soatlarning taqsimlanishi

Umumiy o'quv soati	88 soat
Shu jumladan:	
jami auditoriya soatlari	48 soat
Ma'ruza	24 soat
Amaliy mashg'ulotlar	12 soat
Laboratoriya	12 soat
Mustaqil ta'lim	40 soat

Fanning ishchi o'quv dasturi, ishchi o'quv reja va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil « 4 » 08 dagi « 892 » -sonli buyrug'i tasdiqlangan bilan fan o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

J.X.Tog'ayev – QMII, "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrası assistenti

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrası yig'ilishida (bayon № 1 16.04.2022 y.), "Elektronika va Avtomatika" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 1 20.04.2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet kengashi raisi

Kafedra mudiri

Sh. Turdiyev

F. Jo'rayev

R.A. Eshonqulov

I.O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur fan tarixi, rivoji va istiqboli hamda Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va hududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamraydi. Hayot faoliyati xavfsizligi insonning hayotida sodir bo'ladigan turli ko'rinishdagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalalanish yo'llarini o'rganishga qaratiladigan nazariy fandir. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayonini buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiena me'yor va qoidalarini yaratilmasligi, muhit rivojlanishining murakkablashuviga olib keladi.

Davlatlar o'rtasida insoniyat hayotida xavf xatar soluvchi holatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llaniladigan turli zaharli va zararli moddalar ko'pab xavf xatarlarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'liligiga, atrof muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rin olgan. Aynan shu muammolarning echimini "Hayot faoliyati xavfsizligi" (XFX) fani o'rganadi.

II. O'quv fanning maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsadi – bo'lajak mutaxassislariga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnologik va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishi uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqaroshni shakllantirish vazifalarini, faoliyat davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilish usullari, faoliyat davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish vositalarini ishlatish ko'nikmalarini bajaradi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani boyicha "5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifat menejmenti ta'lim yo'nalishi soatlarning taqsimlanishi

Umumiy o'quv soati	88 soat
Shu jumladan:	
jami auditoriya soatlari	48 soat
Ma'ruza	24 soat
Amaliy mashg'ulotlar	12 soat
Laboratoriya	12 soat
Mustaqil ta'lim	40 soat

III. Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlari)

T/R	Mavzu, bo'lim nomi	Umumiy soat
1	Hayot faoliyati xavfsizligi faniga kirish. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari va terminlari, hayot faoliyati xavfsizligi fanining tarkibiy qismlari va ularning tekshirish obyektlari. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariy asoslari Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari mazmuni. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimi.	2
2	Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish. Faoliyat xavfsizligi ta'minlashning ergonomika va psixologik asoslari Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari, ularning mazmuni. Xavflar, ularning tasnifi. Faoliyat xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, usullari. "Inson - muhit" tizimida inson omili. Faoliyat xavfsizligi ta'minlashning ergonomika asoslari, asosiy prinsip va usullari. Faoliyat xavfsizligi psixologiyasi. Inson faoliyatini tashkil qilishning psixologik jihatlari. Ish joylarini estetik jihatdan jihozlash	2
3	Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil qilish. Xavfsiz faoliyatni tashkil qilishda xodimlar bilimini tekshirish va o'qitish. Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimi, xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarni rejalashtirish. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini mablag' bilan ta'minlash. Ishlovchilarni faoliyat xavfsizligi talablariga amal qilishga o'qitish va qayta tayyorlash tizimi. Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlashni tashkil qilish. H-1 shakldagi dalolatnomani to'ldirish tartibi.	2
4	Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigiyenasi me'yorlari, mazmuni. Ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora tadbirlar. Texnosferada havo muhitining ko'rsatkichlari, ularning mehnat faoliyatiga ta'siri, ishlab chiqarish mikroqiyimining gigiyenik me'yorlari, ularning inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarishda mo'tadil ob-havo sharoitini yaratish. Ishlab chiqarish changlari moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri.	2
5	Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish va yoritish tizimi. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimi, ularning turlari. Umumiy va mahalliy shamollashning me'yori. Ishlab chiqarishda yoritish va uni me'yorlari. Tabiiy va sun'iy yoritish. Yoritishda qo'yiladigan sanitariy gigiyenik talablar. Yoritish vositalari va turlari	2
6	Ishlab chiqarishda shovqin va titrash. Shovqin va titrash inson organizmiga zararli ta'siri.	2

	Yuzaga kelish sabablari va manbalari. Shovqin va titrashni tasniflash, muhofaza chora-tadbirlari belgilash. Ultra va infratovushlarning inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Himoyalash vositalari.	
7	Ishlab chiqarishda zararli nurlanishlar, ularning xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarishdagi zararli nurlanishlar, ularning xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Ularni tasniflash va me'yoriy. Nurlanishning manbalari va ularda ishlovchilarning xavfsizligini ta'minlash	2
8	Ishlab chiqarishda elektr xavfsizlik asoslari. Ishlab chiqarishda elektr xavfsizlik asoslari. Elektr tokidan muhofazalanish usullari. Yerga ulab muhofazalanish tadbirlari. Inson tanasiga elektr tokiga ko'rsatayotgan qarshiligi.	2
9	Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Fuqaro muhofazasining maqsadi va vazifalari. Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Tabiiy ofatlar va ularning sodir bo'lishi. Texnolog va ekologik favqulodda vaziyatlar va undan foydalanish usullari. Suv toshqinlari. Yer ko'chirilari, qor ko'chirilari. Fuqaro muhofazasining kuch va vositalari uning iqtisodiyot tarmoqlarida tashkil etish tadbirlari.	2
10	Zilzila va undan ogohlantirish, muhofazalanish tadbirlari Zilzila va undan sodir bo'lishi. Zilzila turlari va aniqlanish usullari. Zilzila va undan ogohlantirish, muhofazalanish tadbirlari. Zilzilaga aholini tayyorlash. Bino va inshootlarning zilzila bardoshligini oshirish.	2
11	Yong'in xavfsizligini ta'minlash choralar. Yong'in o'lati, uning kelib chiqish sabablari, omillari, turlari, yonish fazalari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyot tarmoqlari binolari, inshootlari va qurilish materiallarining yong'iniga qarshi bardoshlilik darajalari. Sanoat korxonalarining yong'iniga va portlashga xavfli bo'yicha toifalari.	2
12	Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari. Respublikada halokatlar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari. Jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartibi va qoidalar. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish)ni o'tkazish qoidasi. Tomirlardan qon ketishi, turlari, vaqtincha to'xtatish usullari.	2
	Jami:	24

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalar amaliy mashg'ulotlarni ma'ruza matni va tavsiya etilgan adabiotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, stradart va malaka talablariga mos ravishda o'z ichiga oladi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanidan amaliy mashg'ulotlar.

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soat
1.	Fanning asosiy tushunchalari mohiyati, xavf turlari, ularni guruhlash va identifikatsiyalash.	2
2.	Hayot faoliyat xavfsizligining komfort sharoitlari, ishchi o'ringi ergonomikasini o'rganish. Ishlab chiqarishning zararlari va zaharli omillarni inson organizmiga ta'sirini hisoblash. Ishlab chiqarishdagi shovqin va vibratsiyani hisoblash.	2
3.	Ishlab chiqarishdagi tabiiy va sun'iy yorug'likni hisoblash usullari	2
4.	Mexanik jarohatlanishdan muhofazalanish va muhofazalovchi vositalarni aniqlash. Elektr tokining inson organizmiga fiziologik ta'siri.	2
5.	Yong'inni o'chirishning asosiy vositalarini hisoblash usullari. Kasb kasalliklari va ishlab chiqaradagi jarohatlarni tekshirish, hisobga olish va aniqlash usullari	2
6.	O'zbekistondagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini sohasidagi boshqaruv tizimining va funksiyalari. Tashkilotlardagi mehnat muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli obyektlar. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikdagi boshqaruvni hududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.	2
Jami:		12

V. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalar laboratoriya ishlari o'quv rejasidagi auditoriya soatlari mos ravishda standart va malaka talablariga mos ravishda mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari.

T/r	Laboratoriya mashg'ulotlar mavzulari	Soat
1.	Ishlab chiqarish korxonalarida va insootlarda tabiiy yorug'likni aniqlash	2
2.	Sanoat korxonalari va muassosalarda mikroqim sharoitlarni aniqlash	2
3.	Zararli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash. Zaharli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash	2
4.	Sanoat korxonalaridagi shovqinni aniqlash. Ishlab chiqarish joylaridagi tebranishni aniqlash	2
5.	Elektr jihozlarni yerga ulashni hisoblash	2
6.	Birlamchi o't o'chirish vositalarini ish unimdorligini aniqlash. Avtomatik yong'indan darak beruvchilarning ish unimdorligini aniqlash	2
Jami:		12

VI. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha korsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni seminar mashg'ulotlarni ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda o'z ichiga oladi.

Seminar mashg'ulotlarining mavzulari

1. Xavflar turlari va ularning turli sohalarda yuzaga keltiriladigan zararli va salbiy oqibatlarini o'rganish
2. Jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy xavflar va ulardan muhofazalanish masalalari
3. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda insonning psixologik ko'rsatkichlarining ahamiyati

4. Faoliyat xavfsizligini nazorat qiluvchi davlat tashkilotlari, ularning faoliyat ko'rsatish sohalari, huquq va majburiyatlarini o'rganish
5. Jamiyatda ilmiy texnik va axborot (informatsiya) sohasidagi xavf turlari
6. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimi, xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarni rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash.

7. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayoni vaqtida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari
8. Kasb kasalliklarining kelib chiqish sabablari, tahlil qilish, oldini olish tadbirlari, ijtimoiy iqtisodiy oqibatlari.

9. Inson mehnat faoliyatining fiziologik-gigienik asoslari.
10. Texnosfera havo muhitining ko'rsatkichlari ularning mehnat faoliyatiga ta'siri
11. Texnosfera havosi tarkibidagi ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar.
12. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish, ularning turlari, umumiy va mahalliy shamollatishning mohiyati
13. Ishlab chiqarishda shovqin va titrash. Ularning inson organizmiga zararli ta'sirlari
14. Davlatimizdagi va chet eldagi hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini holati
15. Hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini tashkil etishning ob'ektlari, uning sinflash kriteriyalari, ob'ektlari, shaxsiy, korporativ va davlat miqyosidagi uslubiy asoslarini darajasi va uslubiy yondashuvi.
16. Zilzila va boshqa turdagi shunga o'xshash favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni muhofaza qilish.
17. Baxtsiz hodisalarda jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

VII. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogic va axborot texnologiyalarini qo'llanish nazarda tutilgan.

Ma'ruza zamonaviy kompyuter texnologiyalar yordamida prezentatsion va electron – didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan analiy aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogic texnologiyalaridan;
- o'tkaziladigan tajriba mashg'ulotlarida kichik guruhlar musobaqa, guruhli fikrlash pedagogic texnologiyalaridan qo'llash nazarda tutiladi.

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni mustaqil ta'lim ma'ruzalar konspekt va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda o'z ichiga oladi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. HFX muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari.

2. Xavflarni kvantifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa uslublarini tahlil qilish.

3. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va uslublarini tahlil qilish.

4. Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish.

5. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

6. Ish o'ringi tashkilotlarining talablari.

7. Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.

8. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati.

9. O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tizimi.

10. Hayot faoliyat xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.

11. Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.

12. Odam anatomiyasining (antropometrik parametrlarining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.

13. Hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar tahlili.

14. Hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar tahlili.

15. Shovqin va titrashdan himoyalash texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi.

16. Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan me'yoriy hujjatlar tizimi.

17. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati.

18. Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularda ko'riladigan zararlarni ta'minlashga oid statik ma'lumotlar tahlili.

19. Yong'in dan himoyalashning zamonaviy texnik vositalari.

20. Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar.

21. O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan texnologik xavflar.

22. Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.

23. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.

24. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ning strukturaviy tuzilishini o'rganish.

25. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonuni.

26. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni.

27. "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni.

28. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat standartlari tizimi.

29. "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni.

30. "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonuni.

31. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonuni.

32. Tashkilotdagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli ob'ektlari.

33. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.

34. Korxonalarda ishchilarni mehnatni muhofaza qilishni tashkillashtirish.

35. Ish joylarini sharoitiga ko'ra attestatsiya qilish, korxonalardagi mehnatni muhofazalash ishlari bo'yicha sertifikatlash.

36. Davlatimizda va chet eldagi hayot faoliyat xavfsizligining madaniyati holati.

37. Hayot faoliyat xavfsizligining madaniyatini umumiy tavsifi, uning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy va diniy asoslari.

38. Hayot faoliyat xavfsizligining madaniyati tushunchasi.

39. Hayot faoliyat xavfsizligining madaniyatini tashkil etish ob'ektlari.

40. Hayot faoliyat xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajribalar.

41. Xodimlarning xavfsiz faoliyatini tashkil qilish chora tadbirlari.

42. Ish beruvchining majburiy javobgarligi.

43. Mehnat xavfsizligi bo'yicha xodimlarning bilimlarini tekshirish.

44. Inson faoliyatini jarayonidagi madaniyati.

VIII. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar manbalari va axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Mark A, Friend P. James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007

2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik. -T.: Tafakkur qanoti, 2015. -336 b.

3. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik. -T.: TIMI, 2014. -536 b.

4. Yuldashev O.R., Djaborova Sh.G., Xasanova O.T., Hayot faoliyat xavfsizligi. Darslik. -T.: "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014. -268 b.

5. Yormatov G.Yo. va boshqalar. Hayot faoliyat xavfsizligi. -T.: "Aloqachi", 2009. -348 b.

6. Narziyev Sh. M., Qurbanov Sh. X. Hayot faoliyat xavfsizligi. O'quv qo'llanma. -T.: "Yangi nashrlar", 2019, 234 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar, №11.

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2014. -46 b.

9. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi tahrir) O'zbekiston Respublikasi qonuni qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil, 22 sentabr.

10. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlarni tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori №286, 06.06.1997. -T.: 1997.

11. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008, 37-38-son.

Internet saytlari

12. www.gov.uz -O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

13. www.lex.uz -O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

14. www.mintrud.uz -Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.

15. www.bilim.uz -OUMTV sayti